

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

1-son (6-jild)

2026

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 1 (6) – 2026

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2026

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

Yakubov Akmal

SOVET HOKIMIYATINING TURKISTONDA SOVET RESPUBLIKALARINI BARPO ETISH BO'YICHA SIYOSATI	09-21
--	-------

Сапарбаев Бунёд Хуррамбек оглы

МЕЖДУ ДИПЛОМАТИЕЙ И ИМПЕРСКОЙ СТРАТЕГИЕЙ: ВЗАИМООТНОШЕНИЯ ХИВИНСКОГО ХАНСТВА И РОССИИ В ПЕРИОД ПРАВЛЕНИЯ МУХАММАДА РАХИМХАНА I (1806–1825 гг.)	22-31
--	-------

Gadoyev Dadaxon Xayrulloevich

DEGGARON MASJIDINING SOVET O'LKASHUNOSLARI TOMONIDAN O'RGANILISHI	32-47
---	-------

Dadajonov Tursunboy Abdusamatovich

QO'QON XONLIGI DAVRIDA HARBIY KUCHLARNING QUROL-ASLAHALAR BILAN TA'MINLANISHI VA MODDIY BAZASINING RIVOJLANISH JARAYONI	48-53
--	-------

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

Umurzaqova Umida Nosirjanovna, Gafurjonov Jamshidbek Furkat o'g'li

SUV RESURSLARIDAN FOYDALANISHNI IQTISODIY-EKOLOGIK OPTIMALLASHTIRISH IMKONIYATLARI BO'YICHA JAHON TAJRIBASI TAHLILI	54-58
--	-------

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

Yunusova Manzuraxon Pazliddinovna

O'ZBEKISTONDA O'ZINI O'ZI BOSHQARISH ORGANLARINI FUQAROLIK JAMIYATINING MUHIM INSTITUTI SIFATIDA ISLOH ETISH JARAYONI	59-68
--	-------

Karimov Xurshid Abdumannabovich

AN'ANA VA AXLOQIY UNIVERSALIZM – FALSAFIY KOMPARATIVISTIKA KONTEKSTIDA	69-74
---	-------

Egamberdiyev Baxriddin Baxodir o'g'li

O'ZBEKISTONDA MAHALLIY ODATLAR VA MAROSIMLARNING SHAKLLANISHI VA ULARNING FALSAFIY-TARIXIY MOHIYATI.....	75-82
---	-------

Norqulov Shahzod Shuhrat o'g'l

IJTIMOIIY REKLAMA TUSHUNCHASI: MOHIYAT VA FUNKSIYALAR	83-87
---	-------

Beshimov Xamidjon Sayidovich

FUQAROLIK JAMIYATI TARAQQIYOTIDA INSON QADRINI BELGILASH MEZONLARI HAMDA ZAMONAVIY JAMIYATDA INSON QADRINI TA'MINLASHDA KASABA UYUSHMALARINING ROLI.....	88-96
--	-------

Нишонов Сарвар Жасур угли

ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ СМЫСЛООБРАЗУЮЩИХ КАТЕГОРИЙ СОЦИАЛЬНОЙ ЖИЗНИ ЛИЧНОСТИ (НА ПРИМЕРЕ ПРОИЗВЕДЕНИЙ ХУСЕЙНА ВАИЗА КАШИФИ)..	97-105
---	--------

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

Uzakova Go'zal Sharipovna

SHAHARLARDA ATROF MUHIT MASALALARINI HAL ETISHDA JAMOATCHILIK
ISHTIROKINI TA'MINLASHNING HUQUQIY MASALALARI..... 106-112

Eshimbetov G'ulomjon Sultonbayevich

ICHKI ISHLAR ORGANLARINING KADRLAR BILAN ISHLASH XIZMATLARI
FAOLIYATINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI 113-122

Egamberdiyev Vohidjon Otabekovich

JAZONI IJRO ETISH MUASSASASIDAN OZOD ETILGAN SHAXSLARNI IJTIMOY
REABILITATSIYA QILISH VA MOSLASHTIRISH TUSHUNCHASI
HAMDA IJTIMOY ZARURATI 123-132

Марданов Жасурбек Отабек угли

УГОЛОВНОЕ ПРАВОВЫЕ АСПЕКТЫ ВОВЛЕЧЕНИЯ НЕСОВЕРШЕННОЛЕТНЕГО В
АНТИСОЦИАЛЬНОЕ ПОВЕДЕНИЕ 133-138

Mamadjonov Temurali Barotjon o'g'li

FUQARONI BEDARAK YO'QOLGAN DEB TOPISH VA VAFOT ETGAN
DEB E'LOH QILISHNING AYRIM MASALALARI 139-143

Jumumbetov Rasul Jengizbayevich

GEOGRAFIK KO'RSATKICHLARDAN FOYDALANISH HUQUQIY
TA'MINLASH MUAMMOLARI 144-150

Suyunov Bobir Bahodirovich,

RAQAMLI JAMIYATDA TALON-TAROJLIK:
KIBER-XAVFLAR VA ULARNI OLDINI OLISH YO'LLARI..... 151-155

Kdirbaeva Altinay Maksetbaevna

ICHKI ISHLAR ORGANLARIDA XOTIN-QIZLAR XIZMAT O'TASH TARTIBINI
BELGILASHGA DOIR RIVOJLANGAN MAMLAKATLAR TAJRIBASINING ILMIY TAHLILI 156-163

Abduhoshimov Ismoil Abdug'ani o'g'li

KORRUPSION JINOYATLARNING O'ZIGA XOS TAHLILI..... 164-168

Хошимова Юлдузхон Олимжоновна

СОВРЕМЕННЫЕ ПРОБЛЕМЫ ПРИЗНАНИЯ ОБЩЕИЗВЕСТНЫХ
ТОВАРНЫХ ЗНАКОВ 169-175

Abdugaffarov Davronbek Dilshod ugli

ALIGNING UZBEKISTAN'S PRIVATE INTERNATIONAL LAW WITH WTO PRINCIPLES:
THE ROLE OF CHOICE OF LAW IN GATS IMPLEMENTATION 176-180

Aripov Abid Adilovich

O'ZBEKISTONDA CHET EL FUQAROSI TUSHUNCHASI VA HUQUQIY MAQOMI..... 181-189

Tolibbayeva Malika Ulmasjon qizi

ADVOKATNING IQTISODIY VA FUQAROLIK PROTSESSIDAGI ISHTIROKI:
XORIJIY VA MILLIY QONUNCHILIK TAHLILI..... 190-197

Нормуродова Азиза Азимжон кизи

СЕКСУАЛЬНОЕ НАСИЛИЕ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ИЗОБРАЖЕНИЙ В РЕСПУБЛИКЕ
УЗБЕКИСТАН: ОЦЕНКА ДЕЙСТВУЮЩЕГО ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА И ПУТИ ЕГО
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ 198-204

Abdullayeva Parvina Baxrillovna

RAQAMLI PLATFORMALAR BILAN BOG'LIQ TUSHUNCHALAR TALQINI 205-212

Nurmatov Jasur

OLIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARI O'RTASIDA HUQUQBUZARLIKLAR PROFILAKTİKASINING RETROSPEKTIV TAHLILI	213-222
---	---------

Шадиева Сайёра Арифовна

ОСОБЕННОСТИ РАССМОТРЕНИЯ ДЕЛ О ПРИМЕНЕНИИ МЕР ПРАВОВОГО ВОЗДЕЙСТВИЯ К СУБЪЕКТАМ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА	223-233
--	---------

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

Umarov Bahrom Norboyevich

DARSLIK MANTLARI VA KOMPETENSIYA PARADIGMASI: NISBAT MUNOSABAT VA O'ZARO BOG'LIKLIK ("ONA TILI DARSLIGI MISOLIDA").....	234-241
--	---------

Qurbonova Barchinoy Mirzahamdorovna

TOPOGRAFIK KARTALARGA OID TUSHUNCHALAR, ENG MUHIM SHARTLI BELGILAR VA LANDSHAFT DIZAYNIDA ICHKI FAZOVIIY MUHIT, HAJMIY SHAKL VA TEVARAK-ATROF	242-246
---	---------

Haqberdiyev Baxtiyor Rustamovich

QALAMTASVIRDA GEOMETRIK SHAKLLARDAN TASHKIL TOPGAN NATYURMORT HAMDA TEXNIK VA SAN'AT FANLARINI TURLI FANLAR BILAN INTEGRATIV HAMDA SINERGETIK O'QITISHNI NAZARIY YECHIMLARI	247-251
---	---------

Temple Chimuany Odimegwu

REVIEW ON FILLER EFFECT OF VARIOUS NONREACTIVE MATERIALS IN CONCRETE	252-265
---	---------

Arustamyan Yana Yuryevna, Toshpo'latov Omonulloxon Ulmas o'g'li

O'ZBEKISTON XUSUSIIY UNIVERSITETLARIDA TA'LIMNI BOSHQARISHNING HOZIRGI HOLATI, STRATEGIK YECHIMLARI VA ISTIQBOLDAGI RIVOJLANISH SSENARIYLARI	266-271
--	---------

Berdiyeva Nilufar Berdiyeva qizi

INNOVATSION YONDASHUVNING BO'LAJAK PEDAGOG VA TARBIYACHILARNING IJODIIY KOMPETENSIYASIGA TA'SIRI	272-277
---	---------

Otamuratov Maqsudbek Shonazarovich

O'ZBEKISTON OLIY TA'LIMIDA KREDIT-MODUL TIZIMINING PEDAGOGIK ASOSLARI VA UNING TA'LIM JARAYONIGA TA'SIRI	278-283
---	---------

Kurbonova Shoxsanam

TASVIRIIY SAN'AT FANLARINI O'QITISHDA O'QUVCHILAR O'QUV-IJODIIY FAOLIYATINI INTEGRATIV RIVOJLANTIRISH METODIKASI.....	284-289
--	---------

Toxirov Shaxzod Toxirovich

IJTIMOIIY INTELEKTNING TARKIBIIY QISMLARI VA UNING PEDAGOGIK FAOLIYATDA TUTGAN O'RNI.....	290-294
--	---------

Raximjanova Malikaxon Gapurdjanovna, Baybabayeva Shoiraxon Ismatovna

GLOBAL KONTEKSTLARDA MADANIYATLARARO KOMPETENSIYA UCHUN TANQIDIIY FIKRLASH	295-300
---	---------

Received: 16 December 2025

Accepted: 1 January 2026

Published: 15 January 2026

Article / Original Paper

INTERPRETATION OF CONCEPTS RELATED TO DIGITAL PLATFORMS

Abdullaeva Parvina Baxrilloevna

PhD Student at the Academy of Law Enforcement Academy of the Republic of Uzbekistan

Abstract. This article interprets some key concepts related to employment on the digital platform, studies related foreign experience, and suggests strengthening these concepts in legislation.

Keywords: e-commerce, e-commerce operator, e-commerce platform.

RAQAMLI PLATFORMALAR BILAN BOG'LIQ TUSHUNCHALAR TALQINI

Abdullayeva Parvina Baxrilloevna

O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi tayanch doktoranti

E-mail: parvina.abdullayeva.99@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada raqamli platformadagi bandlik bilan bog'liq ayrim asosiy tushunchalar talqin qilingan, bu bilan bog'liq xorijiy tajriba o'rganilgan va qonunchilikda bu tushunchalarni mustahkamlash bilan bog'liq takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: elektron tijorat, elektron tijorat operatori, elektron savdo platformasi.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I1Y2026N26>

Kirish. O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining hozirgi bosqichi xo'jalik jarayonlarini jadal raqamlashtirish bilan tavsiflanib, bu aholining bandligini ta'minlashning tubdan yangi shakllarini, jumladan platformaviy bandlikni shakllantirdi. Mazkur bandlik shakli elektron savdo va xizmat ko'rsatish platformalari orqali amalga oshiriladi. Ushbu sharoitda elektron tijorat faqat fuqarolik-huquqiy muomalalar sohasi bo'lib qolmay, balki tobora ko'proq mehnat faoliyatini amalga oshirishning institutsional muhiti sifatida namoyon bo'lmoqda. Bu esa uni kompleks huquqiy tartibga solish zaruratini yuzaga keltiradi.

Bugungi kunda elektron savdo jahon iqtisodiyotining eng tez rivojlanayotgan yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. 2024-yilda global elektron tijorat bozori hajmi 6,3 trillion AQSH dollaridan oshib, onlayn-sotuvning jahon tovar aylanmasidagi ulushi 22 foizdan ko'proqni (taxminan 286 milliard AQSH dollari) tashkil etdi.

O'zbekistonda ham ushbu sektor jadal o'sish sur'atlarini namoyon etmoqda.

So'nggi sakkiz yilda mamlakatimizda elektron tijorat hajmi 20 barobarga oshib, 1,3 milliard AQSH dollariga yetdi. Bu esa taxminan 750 mingta yangi ish o'rinlari yaratilishiga imkon berdi. Natijada, davlat byudjetiga har yili qo'shimcha ravishda 200 milliard so'm tushum kelmoqda [1]

Bugungi kunda O'zbekistonda 100 dan ortiq milliy elektron tijorat maydonlari (marketpleyslar) faoliyat yuritmoqda, jumladan: Uzum, Sello, ZoodMall va boshqalar.

Shuningdek, mamlakat bozorida Wildberries va Wolt kabi yirik xalqaro platformalar ham muvaffaqiyatli ishlab kelmoqda. Ular O'zbekistonda yuridik shaxs yoki vakolatxona sifatida rasmiy ro'yxatdan o'tgan.

O'zbekistonda chakana savdoda elektron tijorat ulushi hozirda taxminan 4% ni tashkil etmoqda, bu esa jahon o'rtacha ko'rsatkichidan (22%) besh barobar past.

Shu bilan birga, o'sish salohiyati ham hanuz katta qolmoqda: 2024-yil yakuniga ko'ra elektron tijorat bozori hajmi 13,2 trillion AQSH dollariga (taxminan 1 trillion dollari AQSH) yetishi kutilmoqda. Bu esa barqaror ijobiy dinamikani tasdiqlaydi [1]

Shu nuqtai nazardan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 30-noyabrdagi PQ-381-son qaroriga asoslangan holda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 26-dekabrdagi 885-son "O'zbekiston Respublikasida elektron tijorat sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori davlatning raqamli platformalarni tartibga solishdagi yondashuvi o'zgarayotganini yaqqol ko'rsatadi. Xususan, iqtisodiy-texnik yondashuvdan ijtimoiy-huquqiy yondashuvga o'tilishi, platformalar faoliyati, orqali band bo'lgan shaxslarning mehnati, daromadlari va huquqiy himoyasi masalalariga e'tibor qaratilmoqda.

Muhokama va takliflar. Raqamli platformalar orqali amalga oshirilayotgan mehnat faoliyati — kuryerlik xizmati, yo'lovchilar tashish, onlayn xizmatlar ko'rsatish, raqamli mahsulotlar tarqatish kabi sohalarida bandlikning yangi shaklini vujudga keltirmoqda. Biroq platformaviy bandlikni samarali ta'minlashdan oldin uning huquqiy asoslarini aniq va tizimli ravishda mustahkamlash zarur. Xususan, raqamli platforma qanday huquqiy maqomga ega ekani, platforma orqali ishlayotgan shaxsning huquqiy holati, shuningdek, platforma, ijrochi va iste'molchi o'rtasidagi munosabatlarning tabiati qonunchilikda aniq belgilanmas ekan, platformaviy bandlikni qonuniy, barqaror va ijtimoiy jihatdan himoyalangan shaklda rivojlantirish imkoniyati cheklangan bo'lib qolaveradi. Shu sababli, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida, ayniqsa "Elektron tijorat to'g'risida"gi qonunda platformaviy bandlik bilan bevosita bog'liq tushuncha va institutlarni joriy etish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Raqamli platformalarda bandlikni ta'minlashning huquqiy asoslari — elektron tijorat tushunchasi bilan mazmunan va huquqiy jihatdan uzviy bog'liq hisoblanadi, chunki raqamli platformalarning katta qismi elektron tijorat muhitida faoliyat yuritadi va aynan shu muhit platformaviy bandlik vujudga keladigan asosiy makonni tashkil etadi. Elektron tijorat mazkur munosabatlar uchun iqtisodiy va huquqiy muhit sifatida namoyon bo'lsa, raqamli platforma ushbu muhitda faoliyat yurituvchi tashkiliy-texnologik vosita hisoblanadi, platformalarda band bo'lgan shaxslar esa elektron tijorat munosabatlarini amalga oshirishda ishtirok etuvchi subyektlar sifatida qatnashadi. Elektron tijorat tushunchasida asosiy e'tibor masofaviy faoliyatga, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishga hamda mulkiy huquq va majburiyatlarning vujudga kelishiga qaratilgan bo'lib, raqamli platformalarda bandlik munosabatlarida ham ish yoki xizmat masofadan turib bajariladi, platforma axborot tizimi asosiy vosita sifatida xizmat qiladi va ijrochi mehnati natijasida haq to'lash, komissiya undirish, javobgarlik kabi mulkiy talablar shakllanadi.

Elektron tijorat munosabatlari mehnat munosabatlari yoki ularga yaqin bo'lgan munosabatlar bilan kesishadi va o'zaro chambarchas bog'lanadi. Elektron tijorat ishtirokchilari sifatida odatda sotuvchi, xaridor va vositachi sifatida platforma ko'rsatiladi, raqamli platformalar sharoitida esa platforma elektron tijoratni tashkil etuvchi va boshqaruvchi

subyekt sifatida namoyon bo'ladi, ijrochi (kuryer, haydovchi, frilanser va boshqalar) elektron bitimni amalga oshirishda bevosita ishtirok etuvchi shaxs hisoblanadi, buyurtmachi esa xaridor sifatida qatnashadi, shu sababli platformaviy ishchilarni elektron tijorat munosabatlaridan ajratib qarash mumkin emas.

Mazkur bog'liqlik o'rganilayotgan mavzu uchun alohida ahamiyat kasb etadi, chunki elektron tijorat to'g'risidagi qonunchilik raqamli platformalar orqali tashkil etiladigan bandlikning huquqiy asosini bilvosita shakllantiradi, elektron tijorat tushunchasining keng yoki tor talqin qilinishi platformalarda ishlayotgan shaxslarning huquqiy maqomiga bevosita ta'sir qiladi, elektron tijorat faqat savdo faoliyati sifatida qabul qilingan taqdirda platformaviy mehnat huquqiy tartibga solish doirasidan chetda qolishi mumkin, aksincha elektron tijorat raqamli faoliyatning mustaqil shakli sifatida qaralganda platformaviy ishchilarni huquqiy himoya qilish imkoniyatlari kengayadi. Shu ma'noda elektron tijorat munosabatlari raqamli platformalar faoliyat yuritadigan asosiy huquqiy muhitni tashkil etadi va elektron tijoratning qonuniy ta'rifi hamda uning qamrov doirasi raqamli platformalar orqali shakllanadigan bandlik munosabatlarining huquqiy tabiatini aniqlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi.

Shuningdek, elektron tijorat tushunchasi amaldagi qonunchilikda tor doirada belgilanishi uni faqat tadbirkorlik faoliyati doirasida elektron savdo maydonchasi orqali tuziladigan oldi-sotdi bitimlari bilan cheklab qo'yadi. Bunday yondashuv axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda masofadan turib tuziladigan boshqa fuqarolik-huquqiy bitimlarni, shu jumladan jismoniy shaxslar ishtirokidagi munosabatlarni to'liq qamrab olmaydi.

Xorijiy davlatlar tajribasi elektron tijoratni keng ma'noda — elektron vositalar orqali tuziladigan va amalga oshiriladigan mulkiy huquqiy munosabatlar majmui sifatida tartibga solish zarurligini ko'rsatadi. Xususan, BMTning Xalqaro savdo huquqi bo'yicha komissiyasi (UNCITRAL) tomonidan qabul qilingan Elektron tijorat to'g'risidagi namunaviy qonun elektron shakldagi bitimlar, xabarlar va jarayonlarni huquqiy jihatdan tan olishga qaratilgan bo'lib, elektron tijoratni alohida savdo maydonchasi yoki muayyan shakl bilan cheklamaydi. [2]

Yevropa Ittifoqida ham elektron tijorat keng huquqiy yondashuv asosida tartibga solinadi. Xususan, 2000/31/EC-sonli «Elektron tijorat to'g'risida»gi Direktivada elektron vositalar orqali ko'rsatiladigan xizmatlar va tuziladigan shartnomalar axborot jamiyati xizmatlari doirasida fuqarolik-huquqiy munosabatlar sifatida qaraladi va ular elektron savdo platformalari bilan cheklanmaydi. [3]

Shuningdek, qator davlatlar milliy qonunchiligida elektron tijorat elektron shaklda tuzilgan bitimlar va ularni amalga oshirish jarayonida vujudga keladigan huquq va majburiyatlar majmui sifatida belgilangan. Masalan, AQSHda elektron bitimlar va elektron imzolarning huquqiy kuchini ta'minlovchi normativ hujjatlar elektron tijoratni shartnomalar tuzish va ijro etish jarayoni bilan uzviy bog'laydi [4] Maqolada taklif etilayotgan elektron tijorat tushunchasining asosli ekanini xorijiy huquqiy tajriba ham tasdiqlaydi. Xususan, Yevropa Ittifoqida elektron tijoratning huquqiy rejimi, avvalo, 2000/31/YEI-sonli «Axborot jamiyati xizmatlarining, xususan elektron tijoratning huquqiy jihatlari to'g'risida»gi Direktiva orqali shakllantirilgan bo'lib, mazkur hujjat elektron tijoratga elektron vositalar orqali ko'rsatiladigan xizmatlar va tuziladigan shartnomalar axborot jamiyati xizmatlari doirasida fuqarolik-huquqiy munosabatlar sifatida qaraladi va ular elektron savdo platformalari bilan cheklanmaydi. Ushbu hujjat yagona ichki bozor doirasida axborot jamiyati xizmatlari va onlayn-tijorat uchun umumiy

huquqiy asos yaratadi, biroq elektron tijorat tushunchasining o'zi va uning aniq chegaralari alohida qat'iy ta'rif orqali emas, balki elektron tarmoqlar orqali ko'rsatiladigan xizmatlarni tartibga solishning umumiy prinsiplari darajasida belgilangan. Bu holat Yevropa Ittifoqida elektron tijorat faqat tovar sotish yoki xarid qilish jarayoni sifatida emas, balki ichki bozor va raqamli iqtisodiyotning samarali faoliyat yuritishi uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan kengroq axborot xizmatlarining tarkibiy qismi sifatida qaralishini ko'rsatadi va terminologiya raqamli muhitda amalga oshiriladigan faoliyatni oddiy bitimlar bilan cheklamasdan, kompleks tarzda qamrab olishi mumkinligini tasdiqlaydi. Rossiya Federatsiyasi tajribasi ham ushbu yondashuvni bilvosita qo'llab-quvvatlaydi, chunki u yerda hozirga qadar «elektron tijorat» tushunchasining federal darajada yagona qonuniy ta'rifi mavjud emas va mazkur tushunchaga nisbatan yondashuv ko'proq ilmiy tadqiqotlar hamda qonun loyihalari doirasida shakllantirilgan, huquqni qo'llash amaliyotida esa elektron tijorat elektron aloqa vositalaridan foydalangan holda amalga oshiriladigan savdo operatsiyalari majmuasi sifatida talqin qilinadi hamda ko'pincha elektron tijorat keng ma'nodagi tushuncha, elektron savdo esa uning torroq qismi sifatida ajratiladi. Bu esa marketingdan tortib sotish va mijozlarga xizmat ko'rsatishgacha bo'lgan ko'p bosqichli raqamli faoliyatni hisobga olish muhimligini ko'rsatadi va men taklif qilayotgan, elektron tijoratni faqat bitim emas, balki raqamli faoliyat shakli sifatida qamrab oluvchi yondashuvga yaqin ekanini anglatadi.

Janubiy Koreya qonunchiligi esa elektron tijoratga nisbatan yanada aniq va tizimli yondashuvni namoyon etadi, chunki u yerda «Elektron tijoratda iste'molchilarni himoya qilish to'g'risida»gi Qonun hamda elektron hujjatlar va elektron bitimlar to'g'risidagi ramkaviy qonun orqali elektron tijorat operatsiyalari elektron vositalar orqali amalga oshiriladigan tijorat faoliyati sifatida belgilab qo'yilgan va tovarlar yoki xizmatlar savdosini elektron xabarlardan to'liq yoki qisman foydalangan holda amalga oshirish hal qiluvchi belgi sifatida e'tirof etilgan. Bunday yondashuv elektron tijoratda asosiy ahamiyat elektron vositalar, masofaviy faoliyat va natijada tomonlar o'rtasida mulkiy huquq hamda majburiyatlarning vujudga kelishiga qaratilishini aniq ko'rsatadi. Shu bois, xalqaro amaliyot shuni ko'rsatadiki, elektron tijoratni faqat oldi-sotdi jarayoni bilan cheklash maqsadga muvofiq emas, aksincha raqamli muhitda yuzaga keladigan barcha tijorat munosabatlarini qamrab oluvchi keng, biroq huquqiy jihatdan aniq ta'rif berish zarur, chunki xalqaro tizimlar va model qonunlarda ham elektron tijorat ishtirokchilari o'rtasida huquq va majburiyatlarning, javobgarlik va huquqiy oqibatlarining vujudga kelishi aynan raqamli kommunikatsiyalar orqali amalga oshiriladigan faoliyat bilan bog'lanadi. Shu ma'noda, men taklif qilayotgan elektron tijorat ta'rifi o'zaro munosabatlarning raqamli tabiatiga, ularning masofaviy xarakteriga hamda mulkiy huquq va majburiyatlarning shakllanishiga alohida e'tibor qaratgan holda ishlab chiqilgan bo'lib, u xalqaro umumiy yondashuvlarga ham, alohida davlatlar qonunchiligi tajribasiga ham mos keladi va shuning uchun qonunga kiritilishi lozim bo'lgan yangi, zamonaviy va asosli huquqiy tushuncha sifatida namoyon bo'ladi.

Shu munosabat bilan elektron tijorat tushunchasini Elektron tijorat to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi qonunning tushunchalar to'g'risidagi 3-moddasida quyidagi tahrirda mustahkamlash kerak deb hisoblayman. Elektron tijorat deganda axborot texnologiyalaridan foydalangan holda jismoniy va yuridik shaxslar o'rtasida masofaviy tarzda tovarlarni olib sotish, yetkazib berish, ishlarni bajarish yoki xizmatlar ko'rsatishga qaratilgan bitimlarni tuzish

va ijro etish jarayonida shakllanadigan, natijada ishtirokchi tomonlar uchun mulkiy huquq va majburiyatlar yuzaga keladigan huquqiy munosabatlar tushuniladi.

Shu bilan birga, amaldagi qonunda “elektron tijorat ishtirokchilari” atamasi asosiy tushunchalar bo‘limida mustaqil ravishda belgilanmagan. Holbuki, mazkur atama elektron tijorat sohasida tovarlar, ishlar va xizmatlarni sotish yoki xarid qilish orqali bevosita ishtirok etuvchi jismoniy va yuridik shaxslarni ifodalaydi hamda o‘zining huquqiy tabiatiga ko‘ra bazaviy tushuncha hisoblanadi. Qonunchilik texnikasi qoidalariga muvofiq, qonun normalarini bir xil talqin qilishni ta‘minlash uchun bunday asosiy huquqiy toifalar aynan asosiy tushunchalar qatorida mustahkamlanishi lozim. Shu bilan birga, qonunda mavjud bo‘lgan “elektron tijorat subyektlari” tushunchasi keng qamrovli bo‘lib, u elektron tijorat ishtirokchilari bilan bir qatorda elektron tijorat operatorlarini ham o‘z ichiga oladi.

Elektron tijorat operatori platformaviy bandlik munosabatlarida asosiy tashkiliy subyekt sifatida namoyon bo‘ladi. U elektron platforma orqali ish buyurtmachilari va ish bajaruvchilar o‘rtasidagi o‘zaro aloqani ta‘minlovchi texnik, tashkiliy va axborot infratuzilmasini yaratadi hamda uni boshqaradi. Platforma operatori algoritmlar orqali buyurtmalarni joylashtirish, taqsimlash, bajarilgan ishlar natijalarini baholash, to‘lovlarni amalga oshirish kabi jarayonlarni tashkil etadi. Shu bilan birga, u ko‘p hollarda ish bajaruvchilarni rasman xodim sifatida ishga olmaydi, balki ularning faoliyatini raqamli muhitda muvofiqlashtiruvchi vositachi sifatida ishtirok etadi. Mazkur holat platformaviy bandlik munosabatlarining huquqiy tabiatini aniqlashda muhim ahamiyatga ega.

Elektron tijorat ishtirokchilari esa platformaviy bandlik tizimida bevosita faoliyat yurituvchi subyektlar hisoblanadi. Ularga, bir tomondan, platforma orqali ish yoki xizmatlarga buyurtma beruvchi shaxslar, ikkinchi tomondan esa ushbu platformalar orqali ishlarni bajaruvchi yoki xizmatlarni ko‘rsatuvchi jismoniy va yuridik shaxslar kiradi. Ayniqsa, platformalar orqali mustaqil ravishda ish bajarayotgan jismoniy shaxslar — kuryerlar, haydovchilar, xizmat ko‘rsatuvchilar, frilanserlar platformaviy bandlikning asosiy ishtirokchilari hisoblanadi. Ularning faoliyati elektron shartnomalar va platforma qoidalari asosida amalga oshiriladi.

Platformaviy bandlik sharoitida elektron tijorat operatori va ishtirokchilari o‘rtasidagi farq, avvalo, mehnat munosabatlaridagi o‘rni bilan belgilanadi. Platforma operatori mehnat jarayonini to‘g‘ridan-to‘g‘ri tashkil etuvchi ish beruvchi sifatida e’tirof etilmasdan, ish bajarish uchun raqamli muhit va vositalarni taqdim etuvchi subyekt sifatida ishtirok etadi. Elektron tijorat ishtirokchilari esa mazkur muhitdan foydalangan holda ish bajaradi va daromad oladi. Shu bilan birga, platforma operatorining algoritmlar orqali nazorat, reyting tizimi va shartlarni belgilashi ish bajaruvchilarning iqtisodiy jihatdan platformadan qaramligini kuchaytiradi, bu esa platformaviy bandlikning mehnat huquqi nuqtai nazaridan bahsli jihatlarini yuzaga keltiradi.

Ayni paytda, elektron tijorat operatori va elektron tijorat ishtirokchilari o‘rtasida o‘zaro bog‘liqlik mavjud bo‘lib, ular birgalikda platformaviy bandlik tizimini shakllantiradi. Ularning har ikkisi axborot texnologiyalariga tayanadi, raqamli shartnomalar orqali huquqiy munosabatlarga kiradi hamda mehnat bozorining yangi, norasmiydan rasmiyga o‘tish jarayonida muhim o‘rin tutadi. Shu sababli, platformaviy bandlik munosabatlarini samarali tartibga solish uchun elektron tijorat operatorlari va ishtirokchilarining huquqiy maqomini

aniq belgilash, shu jumladan, mehnat va fuqarolik huquqi chegaralarini aniqlash zarur hisoblanadi.

“Elektron tijorat ishtirokchilari” atamasining asosiy tushunchalar bo‘limida aniq belgilanmagani subyektlar va ishtirokchilar o‘rtasidagi farqning noaniq bo‘lishiga hamda bitimlarni bevosita amalga oshiruvchi shaxslar bilan elektron infratuzilmani ta‘minlovchi shaxslarning aralashib ketishiga olib kelishi mumkin. Shu tushunmovchilikni bartaraf etish maqsadida 29.09.2022-yildagi O‘RQ-792-sonli O‘zbekiston Respublikasining Elektron tijorat to‘g‘risidagi qonunining asosiy tushunchalar deb nomlangan 3-moddasi quyidagi talqindagi tushuncha bilan to‘ldirilishi kerak: “Elektron tijorat ishtirokchilari — axborot tizimlari hamda elektron aloqa vositalari orqali tovarlar, ishlar yoki xizmatlarni sotish va xarid qilish jarayonlarida ishtirok etib, elektron tijorat sohasida faoliyat olib boradigan jismoniy yoki yuridik shaxslardir.” Shuningdek, bu kiritilgan tushunchaga muvofiq ravishda mazkur qonunning tegishli moddalarida “elektron tijorat subyektlari” so‘z birikmasini o‘rniga “elektron tijorat ishtirokchilari” so‘z birikmasi ishlatilsa qonunchilikdagi bir xillik va tushunmovchilikdan xoli bo‘lgan bo‘lardi (Masalan, 4-moddaning to‘rtinchi va beshinchi moddaning beshinchi xatboshisida “elektron tijorat subyektlari” so‘z birikmalari “elektron tijorat ishtirokchilari” so‘z birikmasi bilan almashtirilishidagi kabi). Qo‘shimcha sifatida shu tushunchani ham ushbu moddaga kiritib, yuqoridagi fikrimizga to‘g‘ri bo‘lardi: “Elektron tijorat operatori — elektron savdo jarayonlarini qonuniy va samarali amalga oshirish uchun zarur texnik, tashkiliy va axborot sharoitlarini tashkil qiluvchi yuridik shaxsdir.”

Aniqlashtirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasining “Elektron tijorat to‘g‘risi”dagi qonunida “Agar yuridik shaxs yoki yakka tartibdagi tadbirkor foydalanuvchilarga faqat o‘z axborot tizimlari yoki platformasi orqali tovarlar, ishlar, xizmatlar va raqamli mahsulotlar haqida ma‘lumot taqdim qilsa, lekin elektron shartnoma yoki bitimlar orqali majburiyat olishga kirishmasa, u elektron tijorat operatori hisoblanmaydi” kabi mazmundagi qo‘shimcha kiritilsa, elektron tijorat operatorlarining faoliyat doirasi va maqomi yanada aniqroq ko‘rsatiladi.

Mazkur atamalarni Qonunning asosiy tushunchalari bo‘limiga kiritish platformaviy bandlikda elektron tijorat ishtirokchilari va operatorlarini aniq farqlash, huquqiy aniqlikni oshirish hamda qonun normalarining to‘g‘ri qo‘llanilishini ta‘minlashga xizmat qiladi.

Zamonaviy ilmiy tadqiqotlar ko‘rsatadiki, elektron savdo platformalarini nafaqat tor texnologik infratuzilma, balki ikki tomonli bozorlar, vositachilik funksiyasi va bozor institutlari sifatida qarash talab etiladi. Bu yondashuv platformalarning faoliyatini to‘liqroq, kengroq va jamiyat iqtisodiyotidagi o‘rnini ham aniqroq aks ettiradi. Bu holat elektron savdo munosabatlarini tartibga solishda milliy qonunchilikni ham shunday institutsional tushuncha — “elektron savdo platformasi” — bilan belgilash iqtisodiy va huquqiy aniqlikni oshirishga xizmat qiladi.

Raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi natijasida elektron savdo munosabatlari an‘anaviy “elektron savdo maydonchasi” tushunchasi doirasidan ancha kengayib, zamonaviy raqamli platformalar orqali amalga oshirilmoqda. Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, elektron savdo platformalari faqat tovarlar (ishlar, xizmatlar) oldi-sotdisini amalga oshirish uchun texnik imkoniyat yaratib beruvchi axborot tizimi emas, balki sotuvchilar va xaridorlar o‘rtasidagi shartnomaviy munosabatlarni tashkil etuvchi, muvofiqlashtiruvchi hamda muayyan darajada ularning ijrosiga ko‘maklashuvchi mustaqil huquqiy institut sifatida qaralmoqda.

Xususan, Yevropa Ittifoqida 2022-yilda qabul qilingan Digital Services Act (Regulation (EU) 2022/2065) raqamli xizmatlar va onlayn platformalarni, jumladan elektron savdo platformalarini huquqiy tartibga solishda yangi bosqichni boshlab berdi. Ushbu reglament onlayn bozorlarni alohida turdagi platforma sifatida tan oladi hamda ularga shaffoflik, foydalanuvchilar huquqlarini himoya qilish, axborot oshkor etish va vositachilik faoliyatini mas’uliyatli amalga oshirish kabi majburiyatlarni yuklaydi. Mazkur hujjatga muvofiq, elektron savdo platformalari faqat texnik infratuzilma emas, balki uchinchi shaxslar o’rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni tashkil etuvchi va tartibga soluvchi faol subyekt sifatida qaraladi [5]

Raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi natijasida elektron savdo munosabatlari an’anaviy “elektron savdo maydonchasi” tushunchasidan ancha kengayib, zamonaviy raqamli platformalar orqali amalga oshirilmoqda. Zamonaviy ilmiy adabiyotda platformalar nafaqat texnik infratuzilma sifatida, balki ikki tomonli bozorlar (two-sided markets) mexanizmi orqali vazifalarni bajaruvchi institutlar sifatida ham ko’riladi. Ikki tomonli bozorlar modeli platformalarda sotuvchilar va xaridorlar kabi ikki alohida guruh ishtirokchi o’rtasida o’zaro ta’sir va tarmoq ta’siri bo’lishini hamda bu ta’sirlar iqtisodiy natijalarga salmoqli ta’sir ko’rsatishini ta’kidlaydi. Masalan, ko’pgina tadqiqotlar platformalarni bozorlarda vositachilik funksiyasini bajaruvchi va ishtirokchilar o’rtasida moslashtiruvchi subyektlar sifatida tasniflaydi, bu esa platformalarning iqtisodiy ta’sirini chuqurroq tahlil qilish imkonini beradi [6].

Xitoy Xalq Respublikasida 2018-yilda qabul qilingan “E-Commerce Law of the People’s Republic of China” elektron savdo platformalarining huquqiy maqomini yanada aniq belgilab berdi. Ushbu qonunga ko’ra, “elektron savdo platformasi operatori” sotuvchilar va xaridorlar o’rtasida savdo shartnomalarini tuzish uchun shart-sharoit yaratib beruvchi, axborot almashinuvini ta’minlovchi va ayrim hollarda ularning qonuniy faoliyati uchun javobgarlikni ham zimmasiga oluvchi subyekt sifatida e’tirof etiladi. Qonun platformalarga sotuvchilarni ro’yxatdan o’tkazish, ma’lumotlarni saqlash va huquqbuzarliklarning oldini olish bo’yicha aniq majburiyatlarni yuklaydi, bu esa elektron savdo platformasining institutsional mohiyatini yaqqol namoyon etadi [7].

AQShda esa elektron savdo platformalarini to’g’ridan-to’g’ri tartibga soluvchi yagona qonun mavjud bo’lmasa-da, Communications Decency Actning 230-bo’limi (Section 230) internet platformalarining huquqiy maqomini belgilashda muhim ahamiyatga ega. Ushbu normaga muvofiq, platformalar uchinchi shaxslar joylashtirgan axborot uchun cheklangan javobgarlikka ega bo’ladi. Bu yondashuv elektron savdo platformalarini mustaqil vositachi sifatida tan olish bilan birga, ularning faoliyatini alohida huquqiy institut sifatida ko’rish zarurligini ham ko’rsatadi [8].

Ba’zi adabiyotlarda platformalar ikki (yoki undan ortiq) guruh ishtirokchilari o’rtasida moslashuvchi bozorlar sifatida tasniflanib, ularning o’zaro ta’siri va tarmoq ta’siri mexanizmlari tahlil qilingani qayd etiladi. Bu tadqiqotlar elektron savdo platformalarining institutsional ahamiyatini to’liqroq va mukammalroq anglashga xizmat qiladi [9].

Yuqoridagi xalqaro tajriba va ilmiy tahlillar shuni ko’rsatadiki, elektron savdo munosabatlarini faqat “elektron savdo maydonchasi” tushunchasi bilan cheklash zamonaviy raqamli iqtisodiy voqelikni to’liq aks ettirmaydi. Shu sababli milliy qonunchilikda “elektron savdo platformasi” tushunchasini sotuvchilar va xaridorlar o’rtasida shartnomalar tuzish va ularning ijrosiga ko’maklashishga qodir bo’lgan texnik, tashkiliy va institutsional vositachi

tizim sifatida belgilash huquqiy aniqlikni ta'minlaydi. Bunday yondashuv elektron savdo sohasida ishtirok etuvchi subyektlar o'rtasidagi munosabatlarni to'g'ri tasniflash, platforma operatorlarining huquq va majburiyatlarini belgilash hamda milliy qonunchilikni xalqaro standartlar bilan uyg'unlashtirishga xizmat qiladi.

Shulardan inobatga olib, O'zbekiston Respublikasining "Elektron tijorat to'g'risida"gi qonunining 3-moddasiga quyidagi tushunchani kiritish kerak, deb hisoblaymiz: "Elektron savdo platformasi — Internet jahon axborot va telekommunikatsiya tarmog'i orqali faoliyat yurituvchi, sotuvchilar va xaridorlarga ishlarni bajarish, xizmatlar ko'rsatish, tovarlarni, shu jumladan raqamli mahsulotlarni taklif etish, sotib olish va sotish, yetkazib berish bo'yicha elektron bitimlarni rasmiylashtirish hamda bunday bitimlar doirasida shartnomaviy munosabatlarni shakllantirish va amalga oshirishga tashkiliy, texnik va axborot jihatdan imkoniyat yaratib beruvchi axborot-kommunikatsiya tizimi hisoblanadi".

Xulosa. Yuqoridagi fikrlarni inobatga olib xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, raqamli platformalardagi bandlikning huquqiy asosini mustahkamlashni, ushbu soha bilan bog'liq tushunchalarni qonun darajasida mustahkamlash muhim ahamiyatga ega. Bu avvalo platformaviy bandlikda nazariy va amaliy jihatdan bir xillikni ta'minlaydi va noto'g'ri talqin qilishni oldini oladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. NAPP (O'zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi) vakilining 2025-yil 15-oktyabrdagi Marketpleyslar bo'yicha III xalqaro konferensiyada tayyorlagan ma'lumotidan. NAPP da amaliyot o'tash davomida muallif tomonidan o'rganilgan
2. UNCITRAL Model Law on Electronic Commerce (1996).
https://digitallibrary.un.org/naana/record/286739/files/19-04970_ebook.pdf?withWatermark=0&withMetadata=0®isterDownload=1&version=1
3. Directive 2000/31/EC of the European Parliament and of the Council (E-Commerce Directive). <https://eur-lex.europa.eu/eli/dir/2000/31/2024-02-17>
4. Uniform Electronic Transactions Act (UETA), USA.
https://www.uaipit.com/uploads/legislacion/files/0000004550_UNIFORM%20ELECTRONIC%20TRANSACTIONS%20ACT.pdf
5. https://ipkey.eu/sites/default/files/documents/resources/PRC_E-Commerce_Law.pdf?utm_source
6. The Impact of Two-Sided Market Platforms on Participants' Trading Strategies: An Evolutionary Game Analysis (2023) — Yingxiu Zhao & Sitong Zhou.
<https://www.mdpi.com/2227-7390/11/8/1927>
7. https://ipkey.eu/sites/default/files/documents/resources/PRC_E-Commerce_Law.pdf?utm_source
8. Platform investment and seller competition in two-sided markets Francesco Angelini1 · Massimiliano Castellani1 · Lorenzo Zirulia2,3
https://link.springer.com/article/10.1007/s00712-024-00874-x?utm_source
9. <https://www.justice.gov/ag/media/1072971/dl?inline=>

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 1 (6) – 2026

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).